

**“IQRORNOMA” – TOLSTOY ICHKI DUNYOSI HAMDA DINIY
QARASHLARI IN’IKOSI**

Sulaymanova Nafisaxon Yashin qizi

Angren universiteti “Til va uni o’qitish metodikasi” kafedrasи o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Tolstoyning “Iqrornoma” asari, islom diniga bo’lgan munosabati uning maktublari vositasida ochib berilgan.

Kalit so’zlar: avtobiografiya, falsafa, e’tiqod, iymon.

Annotation: In this article, Tolsoty’s “Confession”, his attitude to Islam, is revealed through his letters.

Keywords: autobiography, philosophy, belief, faith.

Daho adib Lev Tolstoy nafaqat o’tkir realistik badiiy asarlar, balki teran tafakkur va chuqur bilim asosida yozilgan ko’plab diniy-falsafiy asarlar muallifi sifatida mashhur. 70-yillarda ruhiy iztirob ichida yashagan adib o’z hayot yo’lini qayta nazardan o’tkazdi va shu jarayonda ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi va hayot yo’li bilan bog’liq jamiyat qatlaming ma’naviy asoslari yolg’onga asoslangan, degan xulosaga keldi. Uning bunday qarashlari “Iqrornoma”, “E’tiqodim nimada?”, “Alloh hukmronligi botiningizda”, “Din nima va uning mohiyati nimada?”, “Hayot yo’li” kabi asar va maqolalarida o’z ifodasini topdi.

Tolstoy nasroniylik dinini chuqur o’rganib, to’rtta yevangeliyani tarjima qilgan, dao falsafasini o’rganib, Lao Szening hikmatlarini rus tiliga o’girgan. Shuningdek, islom ta’limoti bilan yaqindan tanishib, payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning hadislarini rus tiliga tarjima qilgan.

“Iqrornoma” - buyuk rus dahosini tushunish uchun eng asosiy asar, chunki u yozuvchining butun hayotini belgilagan shaxsiy va ma’naviy izlanishlari, bu yo’ldagi barcha qarama-qarshiliklar, yo’qotgan va topganlarini bor bo’yicha ochib beradi. “Iqrornoma” haqiqatni qidirishning ishtiyoqli va ochiq-oydin xronikasi, buyuk diniy va’zlar kabi yozilgan, lekin mutaassiblik tomonidan boshqara olinmagan ozod ruhning qalb daftaridir.

Tarjimon Ozod Sharafiddinov: “Tolstoy “Iqrornoma” sining eng muhim fazilati shundaki, u asarda qaysi muammo haqida bahs yuritmasin, hamisha bu muammolarini o’z hayoti misolida tahlil qilgan va biror o’rinda samimiyatdan chekinib maqtanchoqlikka, manmanlikka, o’zini pardozlab ko’rsatishga uringan emas”, deb yozganida Tolstoydek murakkab adibning dunyoqarashiga doir ayrim sezimlarini anglatgan edi.

“Iqrornoma” yuksak samimiyati bilan, muallifning o’zi haqida o’ta shafqatsiz qalam tebratishi bilanoq bizga inson to’g’risida fikr yuritganda bir tomonlamalikka yo’l qo’ymaslik zarurligini, masalaning hamma qirralariga birday e’tibor bilan qarash kerakligini o’rgatadi. Asarning yana bir fazilati – muallif fikrlarining g’oyat o’tkirligida. U har gal betakror bir sinchkovlik bilan masalaning mohiyatigacha yetib borishga harakat qiladi va natijada kitobxon ilgari kam e’tibor bergen jihatlarini ochib, uni yanada qiziqtirib, o’z ortidan yetaklaydi.

Ushbu asar Tolstoyning avtobiografik asari bo’lib, 1870-1880-yillarda yozilgan. Asarning asosiy mazmuni – yozuvchining ko’p yillik ichki kechinmalarini sarhisob qilish, og’riqli va ehtirosli izlanishlarda aziyat chekkan hayotning mazmuni haqida tushuncha berishdir. 1882-yil

“Rus tafakkuri” jurnalining may oyi sonida asarni kitobxonlar ommasiga havola qilish rejasি bor edi, ammo cherkov senzurasi nashrga qattiq qarshilik ko’rsatdi. Asar ilk bor 1884-yil Jenevada nashr qilindi.

Asar boshlanmasida Tolstoy bir kuni gimnaziya talabasi kelib, Xudo yo’qligini aytganidan keyin bolalikdan iymonini yo’qotganini yozadi. Bir muddatdan so’ng C. degan “o’ta dono’ tanishining iymondan voz kechishi haqidagi hikoyasidan keyin butkul ibodatni to’xtatadi. “Uning bunday qilganiga sabab – akasining “Hali ham shu ishingni qo’yaning yo’qmi?” degan masxaraomuz gapi yoki qalbida shunday qat’iy qarorga kelganida ham emas, shunchaki akasining gapi og’irligidan qulay-qulay deb turgan devorga turtki bo’lgan”, deb izohlaydi adib.

Asarda Tolstoy tuban ishlari va jinoyatlari: urushda odam o’ldirgani, duelga chaqirgani, qartabozlik, zinokorlik, ichkilikbozlik bilan mashg’ul bo’lgani; jamiyatning ahvoli; gunohlar qoralanmasdan, aksincha rag’batlantirilgani haqida yozadi. U bu ishlarning barchasini jamiyat oldida shuhrat toppish uchun qilganini, aslida botinan faqat yaxshilik tomonida bo’lganini “Xolbuki, yaxshilikka intilish hayotimning mazmunini tashkil qilardi”, degan so’zlaridan ilg’ash mumkin. Keyin u ijodga ishonishni boshladi, o’zi hech nimani bilmay turib boshqalarga o’rgatuvchi ruhoni singari yashadi. “Nega?” degan savollar, azob-uqubatlar va umidsizliklar yozuvchini hayotning ma’nosini izlashga majbur qildi. “Hayotingizdan, albatta, ma’no topishingiz kerak, yo’qsa biror kun miyangizni yo’qotib qo’yishingiz hech gapmas”, deb yozgan edi adib. Bu esa unga chalkashliklar va javobsiz savollar keltirdi. Hayotini to’xtatish, o’z jomiga qasd qilish fikri bilan yashay boshladi. “Mening hayotim – bu kimdir menga qilgan ahmoqona va shafqatsiz hazil. Sizda faqat hayotning masrurligi davom etar ekan, yashashingiz mumkin, lekin kimdir bu mastlikdan xalos bo’lganda, bularning barchasi yolg’on ekanini ko’rmasligi mumkin emas!” deb yozadi Tolstoy. Biroq bu falsafiy mulohazalar yozuvchini ishontira olmaydi. Yagona haqiqat – o’lim, qolgani – yolg’on. Tolstoy bu haqiqatni Suqrot, Shopengauer, Sulaymon va Buddha misolida tasdiqlaydi. Suqrot hayot yovuzlikdan iborat, undan qutulish esa ne’matdir, desa, Buddha odam o’zini hayotdan judo qilishi kerak, degan g’oyani ilgari suradi. Keyin Tolstoy aniq va tabiiy fanlardan javob izlab ko’radi. Fanlar otasi falsafadan javob izlaganda shunday javob oladi: “Men yashayotgan hayotning ma’nosи qanday?” “Hech qanday”. “Nega mavjudman?” “Mavjudliging uchun mavjudsan”. Shu o’rinda Tolstoy Sharq masalini keltiradi. Unda quduq devoridagi shoxga osilib qolgan odam tasvirlanib, quduq og’zida arslon, pastda ajdar uni yeyishga shay. Ikki sichqon esa shoxni, ya’ni uning umrini kemirmoqda. Odam esa bamaylixotir shox bargidagi asalni yalash bilan band edi. O’z fikrlarini fanlar va faylasuflar fikrlari bilan taqqoslagan Tolstoy to’rtta yechim taklif qiladi:

1. Hayotning ma’nosizligini bilmaslik, ya’ni asaldan ajdar og’ziga tushib ketguncha yalash. Bu Tolstoyna to’g’ri kelmasdi. Chunki u hayot haqiqatini bilardi.

2. Epikurona chora. Ya’ni, sizga, aqli odamga qilingan eng badbaxt va ahmoqona hazil – hayot ekanligini anglash. Biroq buni ham Tolstoy o’ziga ep ko’rmaydi. “Men qarilik, azob va o’lim borligini bilgan holda hayotdan zavqlana olmadim”, deb yozadi u.

3. Bu chorani u kuch-quvvat chorasi deb ataydi. Unga ko’ra hayotning bema’no ekanini anglasangiz, uni mahv etishingiz kerak. O’z joniga qasd qilishga adibning jur’ati yetmas edi.

4. Oxirgi chora – ilojsizlik. Bema’ni, absurd hayotda davom etaverish. Tolstoy fikricha, uning o’zi shu toifadan edi.

Hamma yozuvchilar biladigan bir haqiqat bor, ammo deyarli hech kim asarlarini shuhrat uchun yozilgan deb aytmaydi. Tolstoy bu kitobida asarlarini shuhratparastlik va mag'rurlik uchun yozganini tan olganiga guvoh bo’lamiz. U yozuvchilar doirasiga kirib, shoir va san’atkorlarning e’tiqodi, ijodining asl ahamiyati va qadriyatini kuzatib, siqilish va nochorlikni his qiladi, bu sohada “Men nimani bilaman va boshqalarga nimani o’rgatishim kerak?” kabi fundamental savollar berishning hojati yo’qligini anglaydi.

Adibni urf-odatlarini muqaddas deb biladigan, oddiy, savodsiz, kambag’al odamlarda kashf etgan juda kuchli tuyg’u hayotga qaytaradi. Bu kashfiyot iymon va ishonch edi. “Mening hayotimni harakatga keltirgan narsa mening o’sha kezlardagi yakka-yu yagona iymoni komil inson bo’lishga ishonch edi. “Men qanday yashamog’im kerak?” degan savolni qo’yishim bilan “Xudoning qonunlariga amal qilib”, degan javobni olaman. “Mening hayotimdan qanaqa bir chinakam narsa kelib chiqadi?” degan so’roqqa “Mangu azob-uqubat yoki mangu rohat-farog’at”, degan javob olaman. “Hayotimda o’lim mahv etolmaydigan qanday ma’no bor?” “Haqning jamoliga erishish, cheksiz Xudoga qo’shilish, jannat”, deb yozadi Tolstoy.

Lev Tolstoyning ulug’ligi ham uning Haq oldida insoniy ojizligi-yu, dohiyona tafakkur bilan iymonini saqlaganida edi. “Har qanday iymon kimga va qanday bo’lmasin javob bergen bo’lsa, iymonning har qanday javobi insonning cheklangan hayotiga cheklanmagan narsaning ma’nosini baxsh etadi. Binobarin, faqat iymondagina hayotning ma’nosи va yashash imkonini topish mumkin”, deb yozadi adib. Bu so’zlar din shaklidan qat’iy nazar har bir insofli banda iymon sari yuksalgandagina hayotning ham, o’limning ham ma’nisini topishga muhaqqaq bo’lajagini eslatuvchi bir dalolatnomadir.

Garchi Tolstoy o’z qahramoni Pyer Bezuxov bo’lib, masonlikdan ko’mak o’tinganda ham, Platon Karatayev bo’lib, o’z iymonini urush changalidan salomat olib chiqishga uringanda ham, Vronskiydek kibor knyaz quchog’idan qochib o’zini o’limiga tutgan Anna Karenina qalbida yashaganida ham mukarram iymonning tarafida bo’ldi. Tolstoy har doim o’sha davr rus jamiyati uchun begona, noodatiy fikrlari va qarashlari bilan ajralib turgan. U shunday yozadi: “Dunyo barcha sohada Masih ta’limotiga qarshi hayot tarzini o’rnatdi. Cherkov esa yot qarashlarni o’ylab topdi. Unga ko’ra, Masih qonunlariga teskari yashagan insonlar u bilan hamjihatlikda yashamoqdalar”. Bunday tanqidiy fikrlar tufayli Tolstoyni cherkovdan mahrum qilishdi.

Anri Truayyaning “Lev Tolstoy” kitobida yozuvchining Tulaga borganligi tasvirlangan. Muallifning yozishicha, har bir asirning qo’lida muqaddas Qur’on kitobi borligi Tolstoyni hayratda qoldirgan. Adib islomga shunchaki qiziqish bildirmagan, u islom dini vakillari bilan yaqindan aloqada bo’lgan. Ulardan biri Muhammad Abdu bilan xat almashib turgan. Bu haqida Umid Bekmuhammadning “Tolstoyning o’zbek suhbatdoshi” nomli maqolasida ham aytib o’tilgan. Tolstoyning “Iqtisod” jurnali muxbiri Fotih Murtazinga yozgan maktubida arab tilini bilmaganligi bois islomni rus missionerlaridan o’rganganligini qayd etadi. Tolsoty nazarda tutgan missionerlar tatarlar orasida faoliyat ko’rsatgan so’fiy bir tashkilotdir. Tashkilot asoschisi Bahouddin Voisov naqshbandiylik tariqatida bo’lsa-da, davrning ijtimoiy va hayotiy ehtiyojlariga muvofiq tariqat falsafasiga yangilik olib kirgan ilg’or fikrli shaxs edi.

Yusuf Tunchbilek “Tolstoy musulmon bo’lganmi?” nomli maqolasida shunday deydi: “U bizning dinimizga nisbatan hech qanday qiziqishda bo’lmagan, deb tasavvur qiladigan taqdirimizda ham uning o’y-fikrlarida va so’fiylarnikidek hayot tarzida musulmonlar undan o’rgansa arziydigan ko’plab misollar mavjud”. Tolstoy dindor inson sifatida turli diniy mavzularni yaxshi bilardi. Yozuvchining islom diniga yuksak ehtirom bilan munosabatda bo’lgani, ayniqsa, asli ozarbayjonlik general bilan turmush qurgan rus ayoli Yelena Bekilovaga 1909-yil 15-martda yozgan xatidan ayon.

Xulosa sifatida aytganda, Tolstoyning islom diniga bo’lgan hurmati uning kundaliklari, maktublari hamda suhbatlarida yaqqol namoyon bo’ladi. “Iqrornoma” esa adibning butun hayotini belgilagan ma’naviy izlanishlari, ichki kechinmalarini aks ettiruvchi qalb daftarıdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Lev Tolstoy. Iqrornoma. - T., “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008.
2. Namozov A. Lev Tolstoy haqida haqiqatlar. - T., “Yangi asr avlodi”, 2010.
3. Bekmuhammadov U. Tolstoyning o’zbek suhbatdoshi. Kh-davron.uz
4. Sharafiddinov O. Buyuk adibning iqrornomasi. - T., “O’zbekiston milliy kutubxonasi”, 2007.
5. G’aniyev I. Inson umrining mohiyati haqidagi asar. - T., “Fan”, 2010.